

“ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH” FANI MUSTAQIL TA’LIMDAGI MUAMMOLI JARAYONLARNI “AQLIY XUJUM” USULIDAN FOYDALANIB HAL ETISH IMKONIYATLARI

M.Dadaxanov¹, A.Axmedov²

¹Namangan davlat universiteti “Raqamli ta’lim texnologiyalari” kafedrası mudiri, PhD, dotsent

²Namangan davlat universiteti “Raqamli ta’lim texnologiyalari” kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Algoritmik tillar va dasturlash” fanini o’qitish jarayonida innovasion usullardan biri bo’lgan – “Aqliy xujum” usulining mustaqil ta’limdagi samara va imkoniyatlari to’g’risida izlanishlarning ayrim natijalari keltirilgan. Unda ilmiy-metodik manbalarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammo tahlil qilingan va aniq fanlarni o’qitishda mustaqil ta’limni rivojlantirishning bugungi kundagi holatidan kelib chiqib, zarur xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: mustaqil ta’lim, aqliy hujum, mantiqiy fikrlash, metodlar va yechimlar, baholash, muhokama qilish va saralash.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые результаты исследования эффективности и возможностей самостоятельного обучения метода «Мозговой штурм», который является одним из инновационных методов в процессе обучения «Алгоритмическим языкам и программированию». Проанализирована проблема на основе научно-методических источников, на основе существующей научной литературы, а также на основе современного состояния развития самостоятельного образования в преподавании конкретных предметов сделаны необходимые выводы.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, мозговой штурм, логическое мышление, методы и решения, оценка, обсуждение и сортировка.

Annotation: This article presents some results of a study of the effectiveness and possibilities of independent learning of the "Brainstorming" method, which is one of the innovative methods in the learning process of "Algorithmic languages and programming". The problem is analyzed on the basis of scientific and methodological sources, on the basis of existing scientific literature, as well as on the basis of the current state of development of independent education in teaching specific subjects, the necessary conclusions are drawn.

Keywords: independent learning, brainstorming, logical thinking, methods and solutions, evaluation, discussion and sorting.

Xozirgi davrda jamiyatimiz rivojlanishi shu qadar intensivlashib ketdiki, bir asr oldin o’n yillar davomida amalga oshirilgan o’zgarishlar bugungi kun o’lchovi bilan bir necha oylarga to’g’ri kelmoqda. Bugungi kundagi 1-sinf o’quvchisining

miyasidagi axborot bazasi xajmi bir asr oldingi olimlar bilim bazasidan kam bo'lmashligi mumkin. Chunki ular o'z ona tillarida gapirish saboqlarini olish bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari (radio, televideniye, uyali telefonlar, turli o'yin qurilmalari va xokazolar) vositasida ulkan axborot oqimini ham beixtiyor qabul qilmoqda. Vaholanki, inson miyasida bir asr davomida deyarli hech qanday fiziologik o'zgarishlar ro'y bergani yo'q. Demak, inson miyasi imkoniyatlari o'zgarmagan holda, yuzlab marta ko'p axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash uchun yangi uslub va vositalarni yaratish muammosi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda [2]. Ushbu muammoni hal qilish esa, eng avvalo, pedagog-murabbiylar, jumladan, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda biz asrlar davomida o'quv jarayonida qo'llab kelayotgan an'anaviy o'qitish usullari yetarli darajada samara bermay qoldi. Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari oldida o'qitishning samarali, kam vaqt talab qiladigan, innovasion usullarini izlash, o'rganish va qo'llashning yangi muammolari paydo bo'lmoqda.

Xozirgi kunga qadar butun dunyoning pedagog-olimlari tomonidan yangidan-yangi o'qitish usullari o'ylab topilmoqda [1, 3, B.142]. Ta'lim jarayonida qo'llash tavsiya etilgan har bir innovasion usulning samarali ekanligi olimlarning ilmiy-pedagogik izlanishlari natijasida isbotlangan va amalda o'z tasdig'ini topgan. Lekin, o'qitishning har bir innovasion usuli qaysidir bir fan sohasida juda yaxshi samarali bo'lsa, boshqa bir sohalarida kutilgan samaralarni bermasligi mumkin. Tabiiyki, ma'lum bir fan, mavzu, muammolarning xususiyatlaridan kelib chiqib, o'qitishning tegishli usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonamizning eng ilg'or texnika va texnologiyalarini o'z ichiga olgan "Algoritmik tillar va dasturlash" fani ham o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, uni o'qitish jarayonida barcha innovasion usullar ham birdek kutilgan yaxshi natijalarni bera olmaydi. Ushbu maqolada, "Algoritmik tillar va dasturlash" fanini o'qitish jarayonida innovasion usullardan biri bo'lgan – "Aqliy xujum" usulining mustaqil ta'limdagi samara va imkoniyatlari to'g'risida izlanishlarning ayrim natijalari keltirilgan.

"Aqliy hujum" (ingl. Brainstorming [4, B.73]) – bu ma'lum bir muammoni hal qilishning operativ usullaridan biri bo'lib, u ko'pchilikning ijodiy fikrlarini to'plash va umumlashtirishga asoslangan. Ushbu usuldan foydalanishda muammo auditoriya oldiga tashlanadi va uni yechish bo'yicha fikrlar berish so'raladi. Keyin bildirilgan fikrlar muhokama qilinib, ulardan eng yaxshi va samaralilari tanlab olinadi.

Sibir federal universiteti dotsenti P.A.Starikov o'z ilmiy izlanishlari natijasida "Aqliy xujum" usulining ustunlik tomonlari hamda undan samarali foydalanishning 10 ta asosiy qoidalarini ishlab chiqqan [4, B.89]. Uning fikriga ko'ra "Aqliy hujum" usuli quyidagi bosqich va qoidalar asosida tashkil qilinadi.

1. Tayyorgarlik bosqichi. Muammoning qo'yilishi.

2. Ijodiy fikrlar generatsiyasi bosqichi. Bu eng asosiy bosqich hisoblanib, butun usulning samarasi shu bosqichga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu bosqichda quyidagi qoidalarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- ✓ fikrlar qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik yaxshi;
- ✓ fikrlarga hech qanday chegara qo‘yilmaydi;
- ✓ hech qanday fikr tanqid qilinmaydi (bu ba‘zi fikrlarning bildirilmay qolib ketishiga olib keladi);
- ✓ favqulotda fikrlar, xattoki, “aqlga sig‘maydigan” fikrlar olqishlanadi;

3. Fikrlarni to‘plash, baholash, muhokama qilish va saralash bosqichi. Ushbu bosqich “Aqliy xujum” usulining natijasi sifatida eng yaxshi va qimmatli g‘oyalarni ajratib olish imkoniyatini beradi.

“Algoritmik tillar va dasturlash” fanini o‘qitish jarayonida ushbu usulni muammoli mashg‘ulotlarida qo‘llash yaxshi samara beradi. Ya’ni mustaqil ta’lim jarayoni talabalarga quyidagi yutuqlarga erishish, malaka va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi:

- ✓ operativ va to‘siqsiz fikrlash;
- ✓ o‘z fikrlash doirasini kengaytirish;
- ✓ o‘z fikrini tez va to‘g‘ri ifodalay olish;
- ✓ muammoni hal qilishda o‘z ulushidan faxrlanish va qoniqish;
- ✓ o‘zi bildirgan fikrning qimmatini yoki kamchiliklarini jamoada tahlil qilish;
- ✓ muammoni hal qilishning tizimli tahlili;
- ✓ o‘zining kelajakdagi kasb faoliyatida “Aqliy hujum” usulini qo‘llash uchun uni mukammal o‘zlashtirish;
- ✓ ma’ruzada qo‘yilgan muammoning yechimini “o‘yinga o‘xshash” yengil usulda tushunib yetish va ma’ruza mavzusini o‘zlashtirish.

Quyida muammoli mustaqil ta’lim jarayonlarida algoritmik tillardan birida tuzilgan dasturni tuzatish jarayonini o‘qitishda “Aqliy hujum” usulidan foydalanishga misol keltiramiz [4, B.148].

1. Tayyorgarlik bosqichi. Muammo: Ma’lum bir masalani yechish uchun tuzilgan kompyuter dasturi kutilgan natijani bermadi. Nima qilish kerak?

2. Ijodiy fikrlar generatsiyasi bosqichi. Ushbu bosqichda talabalar quyidagi o‘z fikrlarni alohida yozib oladilar va auditoriya o‘quv mashg‘ulotlari davomida professor-o‘qituvchiga bildiradilar, professor-o‘qituvchi ushbu fikrlarni interaktiv elektron doska ekraniga yozib boradi:

- ✓ Boshqa algoritmik tilni tanlash kerak;
- ✓ Masalani to‘g‘ri yechish kerak;
- ✓ Masalaning qo‘yilishini qayta ko‘rib chiqish kerak;
- ✓ Kompyuterni virusga tekshirish kerak;
- ✓ Mutaxassis chaqirish kerak;
- ✓ Parametrlarning boshqa qiymatlarida tekshirib ko‘rish kerak;
- ✓ Dasturni butunlay boshqatdan tuzish kerak;
- ✓ Masalaning matematik modelini qayta ko‘rib chiqish kerak;
- ✓ Algoritmni tekshirib chiqish kerak;

- ✓ Dastur kodini qayta ko‘rib chiqish kerak;
- ✓ Butun jarayonni qayta ko‘rib chiqish kerak;
- ✓ Kompyuterni almashtirish kerak;

3. Fikrlarni to‘plash, baholash, muhokama qilish va saralash bosqichi. Ushbu bosqich davomida biz berilgan fikrlarni tahlil qilamiz.

Birinchidan, bildirilgan fikrlar ichida mantiqiy noto‘g‘ri, muammoga aloqasi bo‘lmagan fikrlar yo‘q. Buni maqtovgga sazovor ekanligini ta’kidlab, talabalarga minnatdorchilik bildiriladi.

Ikkinchidan, fikrlar ichida to‘g‘ri, lekin vaziyatdan chiqish (masalani to‘g‘ri yechish) uchun foydali bulmagan fikrlar bor. Masalan, masalani to‘g‘ri yechish uchun dasturlash tilining ahamiyati katta emas, talabaga yoki o‘qituvchiga baho berishning masalani yechish uchun foydasi yo‘q, va xokozo.

Uchinchidan, kompyuterning texnik nosozligi yoki viruslarning ta’siri bo‘lishi mumkinligini albatta hisobga olish zarur, lekin bu tashqi omillar bo‘lib, ularni albatta tekshirib ko‘rish kerak.

To‘rtinchidan, masala yechish uchun tashqaridan yordam (mutaxassis) chaqirish – bu muammoning yechimi emas, chunki muammoni biz o‘zimiz hal qilishimiz kerak.

Qolgan fikrlar to‘g‘ri, maqsadga aniq yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning tahlili natijasida kompyuter yordamida masala yechishni quyidagi ketma-ketlikda tashkil qilish zarur degan xulosaga kelamiz:

- ✓ Masalaning tabiiy qo‘yilishini to‘g‘ri ifodalash;
- ✓ Masalaning matematik modelini tuzish;
- ✓ Masala yechish algoritmini tuzish;
- ✓ Masala yechish dasturini yozish va uni natijasini olish;
- ✓ Dastur ishlashi natijalarini tahlil qilish.

Agar oxirgi natija kutilgan yechimni bermasa, yuqoridagi 5 ketma-ketlik boshidan boshlab qaytada bajarilib chiqiladi. Ushbu jarayon masala to‘g‘ri hal qilinmagunga qadar qayta-qayta takrorlanadi degan xulosaga kelamiz.

Shunday qilib, biz talabalarga “Algoritmik tillar va dasturlash” fanini mustaqil ta’lim jarayonidagi muammolarini “Aqliy hujum” interfaol ta’lim texnologiyasini qo‘llagan holda bayon qilgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://4brain.ru/pedagogika/new-methods.php>.

2. http://uu.vlsu.ru/files/Innovachionnie_MO.

3. Черкасов Михаил Николаевич. Инновационные методы обучения студентов. «Инновации в науке»: материалы XIV международной заочной научно-практической конференции. (Россия, г.Новосибирск. 19 ноября 2012 г.); [под ред. Я. А. Полонского].

4. Стариков П. А. Пиковые переживания и технологии творчества: учебное пособие. — Красноярск: филиал НОУ ВПО «Санкт-Петербургский

ИНСТИТУТ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ, ЭКОНОМИКИ И ПРАВА» В Г.
Красноярске, 2011. — 92 с. — ISBN 978-5-904314-42-2.